


# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


## Asosiy tarkib




## Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5939,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **1,3** % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **441,2** mlrd. so'mni (**7,7** % ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **5498,0** mlrd. so'mni (**2,1** % ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **838,5** mlrd. so'mni (**14,7** % ga kamaydi) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

## UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5 939,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **1,3 %** ga oshdi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **92,6 %** va yirik korxonalar hissasiga **7,4 %** to'g'ri keldi.



## ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri **26,6 %** ulush bilan **1578,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Jizzax sh.  
1 578,7

Zomin  
772,4

G'allaorol  
457,5

Paxtakor  
250,5



Mirzacho'l  
168,4

Arnasoy  
142,7

## ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **1,2 %** ulush bilan **69,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, **5498,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **2,1 %** ga oshdi . Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **92,6 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,7 %), Zafarobod (98,4 %), Yangiobod (98,1 %), G'allaorol (98,1 %), Forish (97,9 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan viloyatning Jizzax shahridan tashqari barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi .

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mln. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	5939159,8	101,3	441155,2	92,3	5498004,6	102,1
<b>Jizzax sh.</b>	1578700,6	100,8	319313,9	93,5	1259386,7	102,8
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	142712,4	100,1	1854,2	190,9	140858,2	99,5
Baxmal	863912,2	102,4	40404,7	71,4	823507,5	104,6
G'allaorol	457474,8	100,3	8519,3	114,8	448955,5	100,1
Sharof Rashidov	878176,5	102,5	1733,5	151,0	876443,0	102,4
Do'stlik	211475,0	101,3	5920,8	120,1	205554,2	100,8
Zomin	772377,4	101,4	26727,3	121,2	745650,1	100,8
Zarbdor	204623,5	101,1	4916,3	144,4	199707,2	100,4
Zafarobod	111219,2	100,5	1756,7	176,1	109462,5	99,8
Mirzacho'l	168405,3	100,4	4134,0	124,5	164271,3	99,9
Paxtakor	250528,3	100,4	19664,7	62,6	230863,6	105,9
Forish	230003,2	100,9	4911,6	135,8	225091,6	100,3
Yangiobod	69551,4	101,2	1298,2	220,1	68253,2	100,1

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

## Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **7,7 %** ga kamaydi va **441,2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,4 %** ulushiga to'g'ri keladi.



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **5 498,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **2,1 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,6 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,7 %), Zafarobod (98,4 %), Yangiobod (98,1 %), G'allaorol (98,1 %), Forish (97,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (20,2 %), Paxtakor (7,8 %), Baxmal (4,7 %), Zomin (3,5 %) va Do'stlik (2,8 %) tumanlarida kuzatildi.



## JIZZAX VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020- yil yanvar - oktabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 264,8** ming so'm (2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **0,8** % ga kamaydi), hududlar kesimida Baxmal (**0,2** %), o'sish sur'atlari kuzatildi, qolgan barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (**8 834,4** ming so'm), Baxmal (**5 495,6** ming so'm), Zomin (**4 686,8** ming so'm) va Sharof Rashidov (**3 946,9** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	4264,8	99,2
Jizzax sh.	8834,4	98,9
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	3095,7	98,8
Baxmal	5495,6	100,2
G'allaorol	2649,0	98,1
Sharof Rashidov	3946,9	99,6
Do'stlik	3213,9	99,6
Zomin	4686,8	99,2
Zarbdor	2360,1	98,6
Zafarobod	2219,9	98,7
Mirzacho'l	3238,6	98,3
Paxtakor	3349,3	98,6
Forish	2475,8	99,3
Yangiobod	2457,6	99,4


## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **838,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **14,7 %** ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **300,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **23,7 %** ga kamaydi), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **538,0** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **8,8 %** ga kamaydi) .


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar





**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **300,5** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **538,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT) ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	838,5	85,3	300,5	76,3	538,0	91,2
Jizzax sh.	130,6	75,0	130,6	73,5	0	0
tumanlar:						
Arnasoy	32,8	94,9	5,3	67,5	27,5	103,0
Baxmal	156,4	129,6	21,1	184,6	135,3	123,8
G'allaorol	84,7	68,4	26,6	53,4	58,1	78,5
Sharof Rashidov	89,6	61,4	0	0	89,6	61,4
Do'stlik	41,1	110,8	15,3	68,7	25,8	174,2
Zomin	125,5	76,5	48,3	75,2	77,2	77,3
Zarbdor	51,1	102,2	7,0	83,8	44,1	105,9
Zafarobod	0	0	0	0	0	0
Mirzacho'l	22,0	74,3	8,2	89,8	13,8	67,5
Paxtakor	49,2	135,7	14,8	82,6	34,4	187,7
Forish	38,0	79,2	21,9	97,3	16,1	63,3
Yahgiobod	17,5	90,5	1,4	61,5	16,1	94,5

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



3,4  
mlrd. so'm

Tuzlamalar



122,9  
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari



9,5  
mlrd. so'm

Qurtilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari

(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

50,4  
mlrd. so'm



Non va non  
mahsulotlari



19,7  
mlrd. so'm

Sut va sut  
mahsulotlari

9,1  
mlrd. so'm



Tuxum

38,9  
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

11,3  
mlrd. so'm



Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar

6,2  
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

7,4  
mlrd. so'm



Ziravorlar

21,7  
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **300,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**122,9** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **538,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **398,8** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **127,6** mlrd. so'mni, otlar **9,3** mlrd. so'mni, parrandalar **2,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,5 %** ni tashkil etib, **87,3** mlrd. so‘mga yetdi va 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **25,3 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **100,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mln. so‘m	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	87336,9	74,7	87336,9	74,7
Jizzax sh.	44280,4	73,7	44280,4	73,7
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	576,5	79,1	576,5	79,1
Baxmal	1569,5	78,7	1569,5	78,7
G‘allaorol	5395,1	74,8	5395,1	74,8
Sh.Rashidov	14973,5	75,2	14973,5	75,2
Do‘stlik	2880,9	75,6	2880,9	75,6
Zomin	6009,2	75,1	6009,2	75,1
Zarbdor	2410,9	77,3	2410,9	77,3
Zafarobod	780,0	77,0	780,0	77,0
Mirzacho‘l	3052,6	77,2	3052,6	77,2
Paxtakor	2609,3	77,0	2609,3	77,0
Forish	2321,4	74,6	2321,4	74,6
Yangiobod	477,6	77,7	477,6	77,7

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 512,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **26,7 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **320,5** mlrd. so'mni (**61,9 %** ga kamayish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 192,3** mlrd. so'mni (**2,4 %** ga kamaydi) tashkil etdi.

### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar


Mikrofirma

Kichik korxonalar

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O‘SISH SUR‘ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega yirik korxonalar Yangiobod (**115,4 %**), Baxmal ( **227,9 %**) va Forish (**109,0%**) tumanlarida kuzatildi.



Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o‘zgarish sur‘atlari Zomin (**96,4 %**), Yangiobod (**98,7 %**), Forish (**98,7 %**), Baxmal ( **153,2 %**) tumanlarida qayd etildi.

**Ulgurji savdo aylanmasi o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1512,8	73,3	320,5	38,1	1192,3	97,6
Jizzax sh.	846,7	71,5	174,7	35,2	672,0	97,7
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	11,0	30,8	8,2	24,9	2,8	98,8
Baxmal	74,2	153,2	47,2	227,9	27,0	97,4
G‘allaorol	36,9	91,6	0,7	30,2	36,2	95,6
Sh.Rashidov	106,8	76,5	10,3	25,1	96,5	98,0
Do‘stlik	70,0	63,5	10,8	22,6	59,2	94,9
Zomin	161,5	96,4	4,4	64,1	157,1	97,8
Zarbdor	42,7	63,0	22,4	47,6	20,3	97,7
Zafarobod	23,6	47,0	12,5	32,2	11,1	98,2
Mirzacho‘l	17,7	30,5	13,7	25,4	4,0	99,2
Paxtakor	29,2	44,1	15,0	29,1	14,2	96,9
Forish	84,4	98,7	0,4	109,0	84,0	98,7
Yangiobod	8,1	98,7	0,2	115,4	7,9	98,3

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar- oktabr oylari yakuniga ko'ra, **1 192,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan **2,4** % ga kamaydi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **78,8** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Forish (**99,6** %), Yangiobod (**97,0** %), G'allaorol (**98,0** %), Zomin (**97,3** %), Sharof Rashidov (**90,4** %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Mirzacho'l (**22,7** %), Arnasoy (**25,5** %) tumanlariga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi  
Tel.:72-221-51-26